



BO‘LAJAK SHUFOKORLARGA TRAVMATOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN KASBIY KO‘NIKMASI

Mirzayev Aziz Kaxorovich

Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: *Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak shufokorlarga travmatologiya fanini o‘qitishda ilm-fanni o‘rganish davomida kasbiy ko‘nikmalari yordamida ilm-fan sohasidagi qiziqishlarini bilimlarga tayanish orqali hal qilish mumkin.*

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta’lim muassasalarida bo‘lajak shufokorlarni kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning rivojlantiruvchi-kreativ texnologiyalari amaliyotga tadbiiq etilmoqda. Janubiy Koreyaning Inchxon shahrida o‘tkazilgan. Butunjahon forumida qabul qilingan 2030 yilga qadar rivojlanish deklaratsiyasida madaniy immunitetni tarkib toptirish» qayd etilgan bo‘lib, Rossiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreyada bu borada jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun moddiy ishlab chiqarishni fan-texnikaning so‘nggi yutuqlari asosida tashkil qilish, tibbiyot sohasida malakali kadrlar bilan ta’minlov bo‘yicha yirik loyihalarni amaliyotga tadbiiq etishga doir tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta’lim va tibbiyot muassasalarida axborot-kommunikatsion kompetensiyasini shakllantirish orqali kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, SMART va STEAM texnologiyalaridan foydalanish jarayonlari samaradorligini oshirish, 3D o‘lchamdagi raqamli texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga talabalarda fazoviy-vizual 3D obrazlarni shakllantirish, chizmachilikda proyeksiyalash usullaridan foydalanish, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini modernizatsiyalash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda oliy ta’lim tizimida tegishli sohalarga yuksak



malakali kadrlarni tayyorlash, ilg'or xorijiy davlatlarning tajribalari, innovatsion texnologiyalarga tayanish, ishlab chiqarishga innovatsion ishlanma va texnologiyalarni keng joriy etishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. «Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish»¹ ustuvor vazifalar etib belgilangan. Bu esa bo'lajak shufokorlarni o'qituvchisining kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytiradi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son, «2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2018 yil 5 sentyabrdagi PQ-3931-son qarori «Xalq ta'limi tizimiga yangi tamoyillarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida», 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079 son, «Raqamli O'zbekiston-2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2019 yil 8 oktyabrdagi 5847-son «O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» farmonlari, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» qarorlari, shuningdek, sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Bo'lajak shufokorlarni o'quv fanlarini o'qitish jarayonida fanlararo aloqadorlik, nazariya va amaliyot birligi, nazariy bilim, shuningdek, kasbiy ko'nikma va mahorat dinamikasini inobatga olish, ta'lim jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида» Фармони// <https://lex.uz/docs/5841063>



Shunday qilib, ta'limning boshqa turlarida bo'lgani kabi tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'limida ham ikki jihat farqlanadi. Ulardan birinchisi - talaba faoliyati tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi. Ikkinchi jihat, talaba faoliyati bo'lib, talabaning bilim va amaliy faoliyatini boshqarish bilan bog'liq jarayondir.

Kasbiy ko'nikma – bo'lajak shufokorlarning nazariy bilim, amaliy ko'nikma, malakalar va ularni kasbiy faoliyatda namoyon eta olishidir.

Uni rivojlantirish jarayoni bir necha bosqichda amalga oshiriladi: birinchi bosqichda ta'lim jarayonida mashg'ul bo'lish, o'z qobiliyatlarini rivojlantirish holatlari tashkil etiladi. Kasbiy mahoratni shakllanishining bu bosqichida ta'lim oluvchilar keyinchalik samarali natijalarga erishishlari uchun barcha chora-tadbirlar amalga oshiriladi; ikkinchi bosqichda kasbiy mahoratni anglash erkinligi va faolligini ta'minlash uchun asosiy vositalar deb hisoblangan maqsadga yo'naltirilgan muhandislik grafikasi jarayonlardan foydalaniladi; uchinchi bosqichda kasbiy mahorat shakllanadi, rivojlanishga bo'lgan moyillik uyg'onadi. Xulosa qiladigan bo'lsak, kasbiy mahoratga motivatsion asosi shakllangan holda, tanlangan kasbni egallash bo'yicha kelgusidagi xarakterlarning maqsadlari va vazifalariga aloqa o'rnatiladi, to'rtinchi bosqich kasbiy ta'lim jarayonida doimiy amalga oshirilib, shakllangan maoslashuv ko'nikmalarini doimiy rivojlantirib borish tadbirlarini o'z ichga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mamadaliyeva Z.R. Virtual laboratory - information in education a specific factor of the communication system in the form // Eurasian Scientific Herald journal. ISSN:2795-7365, Belgium. SJIF(2023):6.512. Vol.5, 2022. p. 92–95.

<https://www.geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/614>

2. Mamadaliyeva Z.R. Methodology for determining the level of bilirubin in the blood in a biochemical analyzer in a Virtual laboratory method // International



conference on advance research in humanities, sciences and education. England. 2023. Vol.1, №1. p.20- <https://confrencea.org/index.php/confrenceas/article/view/371>

3. 5. Mamadaliyeva Z.R. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida localhost dasturi asosida biokimyo fanini virtual laboratoriyalardan foydalanib o'qitish // The role of exact sciences the era of modern development. Nukus. Vol.1 №.1, 2023. p. 47-51.

<https://uzresearchers.com/index.php/RESMD/article/view/765/703>

6. Мамадалиева З.Р. Виртуал лаборатория ишларидан ўқув сифатини ошириш элементи сифатида фойдаланиш. // “Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar, nazariy va amaliy strategiyalar tadqiqi” respublika ko‘p tarmoqli, ilmiy konferensiya. Andijan. №9, 2023. -Б. 108-111. <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/issue/view/28/45>

7. Mamadaliyeva Z.R. Virtual laboratoriya usilida qonda xolesterin miqdorini biokimyoviy analizatorida aniqlash // “Biologik kimyo fanining zamonaviy tibbiyotdagi o'rni-kecha, bugun va erta” respublika ilmiy-amaliy konferentsiya to'plami. Buxoro, 2022. -b. 113-114.

8. Mamadaliyeva Z.R. Improving the quality of learning through virtual laboratory work use as element // Eurasian Scientific Herald journal. ISSN: 2795-7365, Belgium. SJIF(2023):6.512. Vol.5 2022. p. 84-86.

<https://www.geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/612>

9. Мамадалиева З.Р. Тиббиёт олий таълим ташкилотларида биокимё фанини виртуал лабораториялардан фойдаланиб булутли технологияларнинг тарқатиш моделлари методикаси // "Science and Education" scientific journal. ISSN 2181-0842, Toshkent. SJIF(2023):3,848. vol.4 2023. -б. 1227-1233.

<https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5196>

10. Mamadaliyeva Z.R. Virtual laboratory - information in education a specific factor of the communication system in the form // Eurasian Scientific Herald journal. ISSN:2795-7365, Belgium. SJIF(2023):6.512. Vol.5, 2022. p. 92–95.

<https://www.geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/614>